



XALQ DEPUTATLARI ISHTIXON TUMANI KENGASHINING Q A R O R I

Ishtixon ko‘chasi, 4-uy +998 66 629 1521 qarshiyevmamur3@gmail.com

2024-yil 25-may

VI-121-94-7-95-K/24

Ishtixon tumani

Tumanning ijtimoiy va infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida 2024-yilning I-choragi davomida elektr ta’minoti, gaz ta’minoti, uy-joy fondi, mintaqaviy yo’llar (ichki yo’llar) va ichimlik suv ta’minoti tizimlarni yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlар to‘g‘risida tuman hokimining o‘ribbosari

S.Tuxtamurodovning hisoboti haqida

Xalq deputatlari Ishtixon tumani Kengashining 2024-yil 2-fevraldagи VI-115-27-7-95-K/24-sonli qarori bilan tasdiqlangan ish rejasiga hamda Tumanning ijtimoiy va infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida 2024-yilning I-choragi davomida elektr ta’minoti, gaz ta’minoti, uy-joy fondi, mintaqaviy yo’llar (ichki yo’llar) va ichimlik suv ta’minoti tizimlarni yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlар to‘g‘risida tuman hokimining o‘ribbosari S.Tuxtamurodovning hisobotini muhokama qilib, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6- va 24-moddalariga muvofiq xalq deputatlari tuman Kengashining oltinchi chaqiriq, 121-sessiyasi,

QAROR QILADI:

1. Tumanning ijtimoiy va infratuzilmasini rivojlantirish dasturlari doirasida 2024-yilning I-choragi davomida elektr ta’minoti, gaz ta’minoti, uy-joy fondi, mintaqaviy yo’llar (ichki yo’llar) va ichimlik suv ta’minoti tizimlarni yaxshilash borasida amalga oshirilayotgan ishlар to‘g‘risida tuman hokimining o‘ribbosari S.Tuxtamurodovning hisoboti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. Tuman hokimining qurilish, kommunikatsiyalar, kommunal xo‘jalik, ekologiya va ko‘kalamzorlashtirish masalalari bo‘yicha o‘ribbosari (S.Tuxtamurodov)ga:

- tumanda uy-joy communal xizmat ko‘rsatish va obodonlashtirish ishlари yuqori saviyada olib borish va doimiy amalga oshirish ishlарini keng ko‘lamda jadallashtirish;

- shaharsozlik to‘g‘risidagi qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan nazoratni amalga oshirish;

- communal sohani rivojlantirish, aholiga communal xizmat ko‘rsatish sifatini oshirish, xususan, aholini ichimlik suvi va issiq suv bilan ta’minalash, oqova suvlarni chiqarib yuborish yo‘nalishida amalga oshirilayotgan ishlар, sohadagi mavjud muammolar va ularni bartaraf etish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar belgilash;

- aholidan kelib tushayotgan murojaatlarni o‘z vaqtida o‘rganish va muammo kamchiliklarni o‘z vaqtida bartaraf etish ishlарini olib borish;

- tumandagi mahallalar hududidagi elektr ta'minoti, jumladan, transformatorlar va uzatgichlar holatini yaxshilash mavsum davomida tumandagi ko'p kvartirali uylarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan avariya holatlarining zudlik bilan bartaraf etish;

- aholi qulayligi uchun barcha kommunal soha tashkilotlari hamda boshqaruv servis korxonalarida tunu-kunlik aloqa vositalari (dispatcherlik xizmati) doimiy ravishda ishlashi ta'minlansin;

- mahalliy ichki avtomobil yo'llarini va transport kommunikatsiya tizimini ta'mirlash, ichimlik suvi va oqava suv ta'minotini yaxshilash, elektr energiyasi va gaz ta'minoti hamda ko'chalarni yoritish tizimini tiklash, issiqlik tarmoqlarini modernizatsiya qilish;

- mahallalarda yo'l-transport va muhandislik-kommunikatsiya tarmoqlarini, ijtimoiy soha va boshqa infratuzilma ob'ektlarini qurish-ta'mirlash ishlarining manzilli dasturiga muvofiq ob'ektlarning loyiha smeta hujjatlari ishlab chiqilishini ta'minlash hamda mahalla aholisining farovon turmush kechirishi uchun munosib sharoit yaratish maqsadida ijtimoiy va muhandislik infratuzilmalarini saqlash va asrab-avaylash bo'yicha o'rnatilgan tartibda tegishli chora tadbirlar ko'rish;

- aholi punktlarining bosh rejalarini va boshqa shaharsozlik hujjatlarini ishlab chiqish va tasdiqlashni tashkil qilish, ularning amalga oshirilishi ustidan monitoring qilish;

- muntazam ravishda hududlarga chiqib, Dastur ijrosini tahlil etish va amalga oshirilayotgan chora-tadbirlar natijadorligi yuzasidan har chorak yakunida xalq deputatlari tuman Kengashiga hisobot kiritib borish vazifasi yuklatilsin.

3. Tuman hokimligi axborot xizmati rahbari-matbuot kotibi (M.Tursunov), "Ishtixon ovozi" gazetasi muharriri (M.Rabbimova) ushbu qaror ijrosi bo'yicha amalga oshirilayotgan ishlarini ommaviy axborot vositalarida keng yoritib borish tavsiya etilsin.

4. Mazkur qarorning ijrosini nazorat qilish xalq deputatlari tuman Kengashining Sanoat, transport, qurilish, communal soha va aholiga xizmat ko'rsatish masalalari bo'yicha doimiy komissiyasi (S.Abdug'aniyev) zimmasiga yuklatilsin.

Sessiya raisi



KIYAMOV NURALI
KUVANDIKOVICH